

INNOVATION TA`LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA MA`NAVIY  
QADRIYATLARNING O'RNI

*Sayfiyeva Bag'dagul Umirjon qizi  
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

**Kalit so`zlar:** millat, xalq, davlat, demokratiya, ta`lim, tarbiya, ma`naviyat, mustaqillik, qadriyat

**Ключевые слова:** нация, народ, государство, демократия, образование, воспитание, духовность, независимость, ценности.

**Keywords:** include nation, people, state, democracy, education, upbringing, spirituality, independence, values.

Istiqlol o'zbek xalqi ma'naviy dunyosida yangi o'zgarishlarni boshladi. Yurtimizda milliy mustaqillikka erishilgach, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalardagi juda katta o'zgarishlar bilan birga mafkura sohasida ham tub burilishlar amalga oshirildi. O'zbeklarning millat sifatida rivojlanish jarayoni O'zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb etdi. Tarixiy tomirlaridan kuch olgan o'zbek xalqi madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush-tarzi o'ziga xos uyg'onish va yangilanish pallasiga qadam qo'ydi.

Xalqimizning istiqlol davri ma'naviy qiyofasida demokratik xususiyatlar hosil bo'l shining bir nechta muhim istiqbolli jihatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Xalqimiz tafakkurida uning kechasi va bugunini bog'lovchi, kelajak hayot uchun umid, istak, ishtiyoq, beruvchi tarixiy xotira shakllandi. Milliy g'oyaga asoslangan, milliy davlat va milliy taraqqiyot modelida tarixiy xotiraning shakllantirilishi eng asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, “**kim bo'l shidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi, o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodani mustahkamlaydi**”<sup>1</sup>. Haqiqatan ham tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi o'tmishni o'rghanish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugungi va ertangi kunlar uchun xulosalar ishlab chiqishi va kelajakni rejalashtirishga yordam berishida namoyon bo'ladi.

2. Yurtimizda demokratik jamiyatga xos dunyoqarashni shakllantirishga tamal toshi bo'la oladigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotni kompleks ravishda qamrab oluvchi taraqqiyot strategiyasi rivojlanishning “o'zbek modeli” ishlab chiqildi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T 8. – T., 2000. -493-b.

3. Siyosiy tizim asosini tashkil etuvchi sotsial institutlar, madaniy-ma'rifiy safarbarlikni bajaruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari, umuman milliy ma'naviyat va ma'rifatga o'zini ma'sul deb bilgan ziyorilar faoliyatida milliy modelga asoslangan demokratik taraqqiyot jarayonida, iqtisodiy, siyosiy ma'naviy jihatdan o'zo'zini tashkil etuvchi takomillashishga urinishni kuzatish mumkin.

Birinchi Prezidentimiz, xalqimiz ma'naviy qiyofasini o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda asosan, ikki yo'nalihsda amaliy faoliyatlarini tashkil etish, ya'ni an'anaviy azaliy qadriyatlarimizga, bugungi milliy taraqqiyotimizga

xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlari, tili, dini, ruhiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish bo'lsa, ikkinchisi — umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi. Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruhiyat omillari fe'l-atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlar hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzini takomillashuvida esa ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim rol uynaydi.

Mamlakatimizda ta'lim xaqidagi qonun va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining qabul qilinishi, ma'naviyat omilining davlat siyosatida ustuvor yunalishga aylantirilishi, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lmdagi faoliyatlar millat fe'l-atvori, tafakkuri o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi. Ikkinchi jihatdan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy-texnikaviy, madaniy uyg'unlashuv miqyoslarining muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondoshuvlarni tarkib toptirayotir. Binobarin, xar qanday taraqqiyot, sivilizatsiyalar turli xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlari va intilishlarining sintezidan tug'iladi.

O'zbek xarakterini o'rganish va o'zgartirishning tamal toshini jadid bobolarimiz quygan edi. Ular jahon kezib, qiyoslab, o'zbekning zamonning ilg'or millatiga aylantirish uchun milliy tarbiyaviy ishga kirishdilar. Bu o'z maqsad va mohiyati bilan o'zbek xarakterini isloq qilish edi. Chunki Turkistonning ahvoli jahoning o'sha davrdagi taraqqiyotidan ancha orqada edi. Xabarsizlik, hafsalasizlik, mehnatga, el-yurt ravnaqi va obodonchiliga ishtiyoqsizlik, kelajak uchun kurashmaslik, g'ayratsizlik, umummilliy darajada namoyon bo'lganligi tufayli jadidchilar millatni bu sifatlaridan ma'rifiy yo'l bilan tozalash yo'lini tanladilar. O'zbek xarakterini XX asrning peshqadam millatlari darajasiga ko'tarish uchun qator chora tadbirlar, vazifalarni belgilab, qisman bo'lsada amalga oshirdilar. Sovet tuzumi millatparvarlarning bu say-harakatlariga chek quydi. Kommunistik tarbiya sovet xarakterini shakllantirishga kirishdi. O'zbek xalqiga mehmondo'st, mehnatsevar, paxtakor bo'lishga ruxsat berildi.

Bular – o'zbek sovet xarakterining yetakchi chizgilari sifatida ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Milliy o'zlikni, milliy davlatchilikni, milliy kelajakni orzu qilishga, an'analarni tiklashga qaratilgan har qanday intilishga millatchilik aybi to'nkaldi. Shu sababli sovet xarakterini o'zbek muhiti to'la qabul qilmadi. Ijtimoiy konformizm

rasman sovet kishisi, qalban o'zbeklik, rasman ateist – qalban musulmonlik uch avlodda davom etdi. Sovet xarakteri, sovet tuzumi kabi asosan ko'chada yashadi. O'zbeklar sovet xarakterini ishxonada qoldirib, oilalarida, uylarida, mahallalarida milliy hayotga – o'zligiga qaytar edilar.

Milliy xarakter shu tariqa 70 yil davomida bir biriga zid ikki tarkibiy qismga bo'linib, ikkilanib yashadi. Parvarishsiz qoldirildi. Zero, jadidchilardan keyin o'zbek milliy tafakkurini, xarakterini jahoning mutaraqqiy millatlari darajasiga ko'tarish ishi to'xtab qoldi.

Chor Rossiyasi hamda sovetlar mustamlakachiligi davrida xalqimizga xos bo'lган hamjihatlik, jangovarlik, har ishda so'z va ish birligi singari fazilatlarga jiddiy zarar yetkazildi. Xalq orasida milliy birlikka intilishdan ko'ra guruhiy, etnik, mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilish kuchaydi. Xalq ma'naviy qiyofasida taqdirga tan berish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, loqaydlik kabi xislatlar avj oldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'tmishdan meros bo'lib o'tgan ana shunday salbiy holatlarga yangicha nigoh bilan qarash, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy, madaniy merosimizni, o'tmish tariximizni, qolaversa, umummiliy ma'naviy islohotlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi va ular davlat siyosati darajasidagi g'oyat muhim vazifa qilib belgilandi. Bugungi kunda hayotiy zaruratning o'zi xalqimiz fe'l-atvori, ma'naviy dunyosini yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda.

Jahoning milliy mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlari taraqqiyotning uch yo'lidan birini tanladilar: milliy modernizm, milliy konservativizm, milliy reformizm. Bu yo'naliishlarga mos milliy ma'naviy qiyofa shakllantirildi. Milliy modernizm – milliy, ajdodlar an'analarini jahon sivilizatsiyasining yutuqlari bilan uyg'unlashtirib yashash, milliy konservativizm qadimiy chilik. Ota-bobolar qanday yashagan bo'lsa, shunday sharoitda yashash, milliy reformizm – milliy an'analardan voz kechib, taraqqiy etgan boshqa mamlakatlar turmush tarzini qabul qilish. Biz milliy modernizm yo'lini tanladik, bu milliy zamonaviylashuv yo'li sifatida yuz yil avval jadid bobolarimiz tamonidan asos solingan yo'l edi. Faqat bu yo'lni davom ettirish bizning vazifamiz bo'lib qoldi.

Istiqlomiz davlat tuzumi va jamiyat o'rtasidagi tubsiz jarlikka barham berdi. Kishilar davlat hokimiyatiga nisbatan an'anaviy hadik, qo'rquv ilojsizlik va g'animlik tuyg'ularidan xolos bo'ldilar. Aholi davlatga faqat tobelik maqomidan ozod bo'lib davlat bilan teng huquqiy hamkorlik munosabatlariga kirisha boshladilar. Davlat odamlarga o'z turmush tarzi, xo'jaligi, individual va jamoaviy mehnat faoliyatlarini yulga qo'yish uchun pul kreditlari texnika, sug'urta kafolatlari bilan real ko'makchi mavqeiga o'zgardi. Demak, davlat va qonunchilik tizimi odamlar, jamiyatning o'zgarishi uchun shunday huquqiy shart-sharoitlarni yuzaga keltirdiki, toki shu o'zgarishlar mohiyatan iziga qaytmas xususiyat kasb etdi.

Albatta, bozor munosabatlari aholi ruhiyati, turmush tarzi mehnat faoliyatlari mazmuniga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shu ta'sirlar oqibatida odamlar xulq,-atvori, fe'li, xarakterida ham ma'lum o'zgarishlar yuz bera boshladı. Bozor munosabatlari xalqimiz uchun unikal bo'lgan bag'rikenglik, jamoaviylik, hotamtoylilik singari fazilatlarga rahna solish xavfini tug'dira boshladı. Ana shunday muhitda xalqimiz mentaliteti, xarakter birligi va o'ziga xosligini saqlab qolishdek katta ijtimoiy zarurat yirik umummilliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqimizning yuqorida qayd etilgan umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan ezgu fazilatlarini asrash va ijobiy holatlar sifatida endigina bo'y ko'rsatayotgan yangi milliy jihatlar va xususiyatlarga keng imkoniyatlar ochish uchun ilgari tajribada bo'lмаган, ammo eng turli yo'l, muammolarning donishmandona yechimi bugungi kunda o'z yechimini topmoqda. Bu yechimni mazmuni va mohiyati e'tiboriga ko'ra yalpi ma'naviy tiklanish yo'li, ma'rifikat, ilm, madaniyat yo'li deyish mumkin. Zero, o'zgargan tuzum va o'zgarayotgan jamiyat, tobora kuch olayotgan bozor iqisodiyoti, tashqi va ichki muxolifiyat ta'siri sharoitida asosi mustahkam, poydevori qat'iy faqat bir omil ya'ni ilm-ma'rifikat kuchigina xalq ma'naviy birligini saqlash imkonini berar, millatni o'z yaxlitligini asragan holda yangi taraqqiyot ko'lamlariga olib chiqishni muqarrar qilar edi. O'zgarayotgan muhit tabiiyki o'zgargan yangi shaxslarni tarkib toptiradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy tarkib topgan mulkiy farqlar, intellektual, axloqiy va estetik tafovutlar xalqimizning umumiyligi fe'l-atvor birligidan uzoqlashtirib xarakterlar rang-barangligini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda xalqimiz o'ziga xosligini belgilovchi, totuvligini ta'minlovchi mehr-oqibat, hurmat-izzat hamdardlik, o'zaro beg'araz yordamga tayyorlik, sadoqat singari fazilatlarning odamlar orasidagi ta'siri, tarbiyaviy kuchi kamayishi xavfi tug'ilmoqda. Ammo bozor sharoitida kishilar tabiatini muayyan darajada o'zgartirmasdan turib iqtisodiy mexanizmlarni ishga tushirishning ham imkonini yo'qdir. Ammo bu o'zgarishlar ko'laming umuminsoniy me'yorlar darajalaridan chetga chiqmasligi, milliy qadriyatlarimizga rahna solmasligiga hushyor turishimiz lozim. Bu yo`lning eng muhim o'ziga xosligi insonni e'zozlash, uning ma'naviyatini asrash milliy qadriyatlarimizga, xalqimiz xarakteridagi ezgu fazilatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy an'analar va odatlarga sadoqat bilan yondashuvdan iboratdir.